



## KORRUPSIYANING KO'RINISHLARI VA DAVLAT, JAMIYAT

### XAVFSIZLIGIGA TAHDIDI.

Sulaymonov Laziz Sanaqul o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamizda korrupsiyaning ko'rinishlari, kelib chiqish sabablari tadqiqot natijalariga ko'ra tahlil qilinadi. Shuningdek jamiyat kushandasini bo'lmissiz korrupsiyaning jamiyatga keltiradigan zarari va tahdidi haqida fikir mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** korupsiya, Kundalik turmushdagi korrupsiya, Ishbilarmonlikdagi korrupsiya, Yuqori hokimiyatgi korrupsiya, Korrupsion xizmatlar bozori, Xususiy shaxsning qiziqishlari, Korruptsiyaning boyib borish sohalari, korrupsion bozorlar, Davlat organlari, huquqiy savodxonlik, jinoiy to'da, tovlamachilik.

#### **Kirish.**

Korrupsianing kelib chiqish ildizi qayerda?

Uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan. Hatto korruptsiyaning xilma-xil ko'rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan. Hanuzgacha, barcha millatlar uchun qo'l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo'q. Gap shundaki, korruptsiyaning asl ildizi uning paydo bo'lish geografiyasi bilan o'zgaradi.

Bu yerda kalit so'zi "davlat organlari xodimlari" sanaladi. Ya'ni, ushbu jumlaning o'zi korrupsiya darajasi yuqori ekanida davlat xizmatchilarining roli muhim ekanligini ko'rsatadi. Davlat organlarida xizmat qilayotganlarni bunday qabih ishga qo'l urishga nima undamoqda?

Javob yana izohning o'zida yastanib turibdi: "moddiy yoki mulkiy yo'sinda, g'ayriqonuniy shaxsiy naf ko'rish maqsadida!". Tabiiyki, korruptsiya ortida mo'may daromad topish ilinji turibdi, biroq har bir quyi bosqichda uning hakalak otishiga davlat xizmatchilarining oylik maoshi pastligi sabab bo'lmoqda.

#### **Asosiy qisim.**



Keling unda tadqiqotimizni Korrupsianing tasniflashdan boshlaymiz, uning jamiyatda egallagan o'rniqa, xususan faoliyat mezonlariga qarab bir necha turlarga ajratishga aytildi. Shunga ko'ra korrupsiyani ko'plab mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin. Bular asosan quyidagilardan iborat:

- o'zaro ta'sir qiluvchi sub'ektlarning turlari bo'yicha (fuqarolar va kichik xodimlar, firmalar va mansabdor shaxslar, millat va siyosiy rahbariyat);
- foyda turi bo'yicha (foyda olish yoki xarajatlarni kamaytirish);
- yo'nalishi bo'yicha (ichki va tashqi);
- sub'ektlarning o'zaro aloqa yo'li;
- markazlashtirilganlik darjasи;
- bashorat qilinishi mumkinligi;
- izchilligi va boshqalar.

Bugungi kunda korrupsiyaning quyidagi turlari mavjud:

1. Kundalik turmushdagi korrupsiya.
2. Ishbilarmonlikdagi korrupsiya.
3. Yuqori hokimiyatgi korrupsiya.
4. Korrupsion xizmatlar bozori.
5. Xususiy shaxsning qiziqishlari.
6. Korrupsianing boyib borish sohalari[5.478.].

Quyida ularning atroflicha taxlili bilan tanishamiz.

**1. Kundalik turmushdagi korrupsiya.** Korrupsianing bu turi oddiy fuqarolar va mansabdor shaxslarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Unda fuqarolarning turli xil sovg'alari va amaldorga va uning oila a'zolariga xizmatlari kiradi. Ushbu toifaga qarindoshlik (nepotizm) kiradi.

**2. Ishbilarmonlikdagi korrupsiya.** Korrupsianing bu turi hukumat va biznes o'zaro aloqada bo'lganda yuzaga keladi. Masalan, biznes mojarosida tomonlar o'z foydasiga qaror chiqarish uchun sudyaning yordamiga murojaat qilishlari mumkin.

**3. Yuqori hokimiyatgi korrupsiya.** Korrupsianing bu turiga demokratik tizimdagи siyosiy rahbariyat va oliy sudlar kiradi. Bu hokimiyatda o'rnashib olgan vijdonsiz kishilar



guruhining o'zlarining manfaatlarini ko'zlab, saylovchilar manfaatlariga zarar etkazadigan darajada siyosat olib borishdir.

**4. Korrupsion xizmatlar bozori.** Bu sohada eng keng tarqalgan narsa - markazlashtirilmagan (tashqi) korrupsiya bo'lib, bu mansabdar shaxs va alohida shaxs o'rtaida individual ravishda tuzilganib o'zaro foydali kelishuv hisoblanadi. Shu bilan birga, bu kelishuvga birgalikdagi tashkilot a'zolaridan iborat bo'lgan ichki korrupsiyani ham qo'shib olishsa,bu esa unga uyushgan jinoyatchilik tusini beradi. Bixevoirizm[3.] doktrinasiga ko'ra, inson biron bir jamoaga kirar ekan, u albatta ushbu jamoada qabul qilingan xulq-atvor qoidalarini ham qabul qiladi. Shuning uchun, bordiyu, agar idora ichidagi jamoaning madaniyati pora olish yoki berish bilan bog'liq bo'lsa,ya'ni qoniqish muhiti, ba'zan rasmiy masalalar bilan shug'ullanishda mas'uliyasizlik, xodimlarning noto'g'ri xatti-harakatlarini muhokama qilishda oshkoraliykning yo'qligi mavjud bo'lsa, unda jamoaga yangi kelganlar bu xatti-harakatni odatdagidek qabul qilishadi va kelajakda unga rioya qilishadi. Biroq, boshqa tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, inson har doim bunday muhitdan chiqib ketish uchun asosiy imkoniyatga ega bo'lib, unga mikro-hamjamiyat tomonidan jamoadagi buzilishlarga qarshi kurashish,bu kurashni ommalashtirish, ularni hech narsa bo'limgandek e'tiborsiz qoldirish, shaxsning o'zi tomonidan buzilishlarga yo'l qo'ymaslik kabilar kiradi.

Amaldorlar orasida korrupsiyaning tarqalishi, oxir oqibatda unga bo'ysunuvchilar ham, rahbarlar ham manfaatdor bo'lishiga olib keladi[1.32.].

Yuqorida keltirilgan modeldan ham ko'rinish turibdiki, amaliyatda bo'ysunuvchilar pora olgandan so'ng nafaqat yuqori rahbarlari, balki o'zları o'rtaida ham bo'lishadi. Bu esa o'z navbatida korrupsiyaga xos ichki bozorlar va iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirishga olib keladi. Xususan, noqonuniy daromadlari yuqori bo'lgan lavozimlar paydo bo'ladi. Bunday lavozimlar uchun mansabdar shaxslar o'rtaidiagi kurash esa ichki "mehnat bozori" ni shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida korruption bozorlar xizmatining muayyan darajada kengayishiga,faolroq harakat qilishiga olib keladi.

**5. Xususiy shaxsning qiziqishlari.** Hayotda har bir shaxsning o'z qiziqishlari bo'ladi. Ayniqsa, kimdir oddiy ishchi bo'lishga, kimdir olim bo'lishga,kimdir amaldor



bo'lib xalqning og'irini yengil qilishga, kimdir amaldor bo'lib shaxsiy boylik orttirishga qiziqadi. Bularning ichida eng yomoni davlat xizmatchisining tovlamachilik qilishidir.

Tovlamachilik (hukumat reketi) – bu davlat amaldorlari tomonidan o'ziga berilgan vakolatlar doirasida boshqa shaxslarga litsenziyalarni, maxsus ruxsatnomalarni yoki boshqa xizmatlarni bajarishga ruxsatnomani berishni ataylab pora evaziga bajarishidir. Shu bilan bir qatorda, agar mansabdor shaxs to'lash kerak bo'lgan to'lovlar miqdorini (masalan, soliqlar yoki yig'imlar) baholash huquqiga ega bo'lsa, bu ham tovlamachilik, ya'ni pul talab qilish imkoniyatlarini ochib beradi.

Davlat xizmatchisining tovlamachilik qilishi ustidan ichki yoki tashqi nazorat organi orqali shikoyat qilish huquqi mavjud. Qaror apellyasiya tartibining qanchalik qimmatga tushishiga, shuningdek, fuqaro davlat xizmatchisi sifatida o'zining qonuniy huquqlari va majburiyatlarini bilishiga bog'liq.

O'zaro til biriktirish. Bu tovlamachilik bilan bir xil sharoitda sodir bo'ladi, lekin u ikkala tomon uchun foydali bo'lishi va davlatga zarar etkazadigan bitim tuzishdan iboratligi bilan farq qiladi. Masalan, bojxona inspektori pora evaziga import miqdorini kamaytirishi va shu bilan import qiluvchi firmaning bojlar uchun to'lashi kerak bo'lgan miqdorni kamaytirishi mumkin. Bitim rasmiy shaxsni nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan tuzilmalarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

**6. Korrupsiyaning boyib borish sohalari.** Har bir davlatning byudjeti bo'lib, u asosan daromadlar va xarajatlар degan qismlarni o'z ichiga oladi. Ana shu byudjetdagi davlat xarajatlari byurokratiya, ayniqsa yuqori siyosiy elita uchun korrupsiyani boyitishning asosiy sohalaridan biri hisoblanadi. Bular jumlasiga investitsiya loyihalari, davlat xaridlari, byudjetdan tashqari mablag'lar kiradi.

Shuni alohida takidlash joizki, yuqorida takidlangan fikirlarni umumlashtiradigan bo'lsak korrupsiyaning quyidagi to'rt asosiy sababini keltirish mumkin bo'ladi:

1. Shaxsiy sabablar. Korrupsiya "yomon" hodisa, u yaxshi ta'lim-tarbiya ko'rmaslik va kam maosh oladigan amaldorlarning nokasligi oqibatida paydo bo'ladi.
2. Institutsional sabablar. Bunda boshqaruvning kuchsizligi asosiy omil sanaladi. Masalan, kadrlar tayyorlash, hisobga olish va nazorat qilishning samarasizligi, mansabdorlarni yollashning osonligi va ularni oson ishdan haydash, ularda uzoq vaqt



mansabda turishga ishonchsizlik paydo bo'lishi kabilar korrupsiyani rag'batlantiruvchi omillardir.

3. Tizimi sabablar. Hukumat ba'zan jamiyatning shunday talablariga duch keladiki, ularni bajarishning rasmiy tartiblari hali aniq ishlanmagan bo'ladi yoxud ular ko'p miqdorda mablag' talab etadi va aksar holda uzoq muddatlarga cho'ziladi. Shunday holatlarda korrupsiyaga to'g'ridan-to'g'ri va qisqa yo'llar ochiladi.

4. Ko'p tomonlama sabablar. Ba'zan davlat rahbariyatining o'ziga xos xulqi tufayli davlat boshqaruvida hal qiluvchilik rolini "shaxsiy" omillar bajaradi. Bunday sharoitda davlat mansablariga ishonchga sazovor odamlar tayinlangan taqdirda ham institutsional va tizimga oid muammolar sabab korrupsiya ko'payadi.

Ushbu illatni tadqiq qilgan bir qator yirik mutaxassislar quyidagi faktorlarni korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar sifatida ko'rsatadi.

### **Adabiyotlar tahlili.**

Ikki xil ma'noni anglatuvchi qonunlar — ushbu vaziyat huquqni qo'lllovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo'llash imkonini yaratadi. Shuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, ma'muriy qonunchilikdagi "vilka" sanksiyalarini ham korrupsiyaga qulay sharoit yaratishi mumkinligi haqida fikr yuritishgan. Ya'ni, sanksiyaning aniq miqdori yo'qligi sudyada uni o'z hohishiga qarab qo'llashga sharoit yaratib beradi.

Aholi huquqiy savodxonligining pastligi — aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o'zining shaxsiy manfaati yo'lida qonunlardan foydanishga qulay sharoit yaratadi.

Jinoyat olamining nufuzli shaxslari hokimiyatga qanday yo'llar bilan kirib olishi yaxshi ma'lum va ko'p mamlakatlarda sinovdan o'tgan. Avvaliga bu ish nopol daromad manbalarini saqlab qolish, ulardan kafolatli foydalanish maqsadida hokimiyat tuzilmalari bilan aloqa bog'lash va bu aloqani mustahkamlashdan boshlanadi. Shundan so'ng hokimiyatning o'zi ham qo'lga kiritiladi. Bu xolat ijtimoiy taraqqiyotga juda katta tahdid hisoblanadi[4.43].

Shuningdek, B.Aliyev, R.Hakimov "Korruptsiyaga qarshi kurash" monografiyasida ta'kidlanishicha, "Korruptsiyaning boshlanishi mehnatga yetarli haq to'lamasligida, ayniqsa



davlat idoralari xizmatchilariga, ish haqining hayot haqiqatiga to'g'ri kelmasligi, xizmat joyidan shaxsiy foyda olish maqsadida, foylanadi. Korrupstiyaga qarshi kurashishni oshkorlik, ochiqlik ,bilimdonlik ,jamoa faoligi, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlarisiz amalga oshirib bulmaydi,”[2.121] – ta’kidlaydi.

### Xulosa.

Xulosa shundaki, korrupsiyan keltirib chiqaruvchi omillar ana shu hodisa yashab turgan jamiyat yaratgan tizimning nosog'lom yashashida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ommaviy axborot vositalarining korrupsiya qarshi kurashdagi asosiy vazifasi ijtimoiy kayfiyatni yoritish: cho'qqining o'tkir nuqtasiga yetib kelganimizni eslatib turishdan iborat.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abu Muslim. Korrupsiya. –T.: “Yurist”, 2012-yil. –B. 32.
2. Aliyev B.,Hakimov R. Korrupsiyaga qarshi kurash. Monografiya. –T.: “Yangi asr avlodi”. 2012-yil. –B.121.
3. Bixevoirizm - (ing. behaviour xulq) - 19-asrning oxiri - 20-asrdagi amerika psixologiyasining yetakchi oqimlaridan biri. Bixevoirizm ta'limoti asosida odam va hayvon xulqida tashqi muhitdan bo'ladigan ta'sir, qo'zg'atuvchi (stimul)ga javoban yuzaga keladigan xatti harakat va unga taalluqli nutqiy va hissiy javoblarning majmui yotadi/
4. Qobilov Sh.R., Abdullajonov N.B. Korrupsiya va xavfsizlik. –T.: “Akademiya”, 2006-yil. –B.43.
5. Yaxshilikov J. Muhammadiyev N. Falsafa. Darslik. –Samarqand.: “SamDU” 2021. – B.478.
6. Kholikulov, M. (2023). Scientific-Theoretical and Philosophical Origin of the Doctrine of Unity in Sufism. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(2), 213-216.
7. Qaxor ogli, X. M. (2022). IDEOLOGICAL AND THEORETICAL BASIS OF SUFISM. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 389-393.



8. Sadriyevna, A. L., & Qaxor o'g'li, X. M. (2023). KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI. *BARCHA SOHALAR BO'YICHA*, 32.

